



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO`MITASI**

**2018 yil mart oyi uchun O`zbekiston Respublikasi iste`mol  
sektoridagi inflyatsiya darajasi**




**2018 yil mart oyida iste`mol narxalari indeksi  
(o`tgan oyga nisbatan, %da)**



Asosiy guruhlar tomonidan narxlarning o'zgarishidagi ta'sir ulushining nisbiy ko'rsatkichlari quyidagi diagrammada keltirilgan:

### 2018 yil mart oyida INI umumiy o'sishida tovar va xizmatlar narxlarining ta'sir ulushi




### Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

Yuqorida qayd etilganidek, oziq-ovqat mahsulotlari oy davomida o'rtacha 1,3 %ga qimmatlashib, bu esa o'z navbatida INIning umumiy o'sishiga 0,6 f.d.da ta'sir ko'rsatdi.

## 2018 yil mart oyida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari indeksi

(o'tgan oyga nisbatan, %)




Mavsumiy o`zgarishlar natijasida meva mahsulotlari narxlarining mart oyi davomidagi qimmatlashishi umumiy INI o`shiga 0,5 f.d. ta`sir etib, bular asosan olma (18,7% ga), uzum (18,4% ga), nok (6,5% ga), banan (6,2% ga) va sitrus mevalar (6,1% ga) narxlarining sezilarli darajada qimmatlashishi hisobiga to`g`ri keladi.

Narxlarning oshishiga nomutanosib ravishda sabzavot mahsulotlari hamda kartoshka narxlarida o`z aksini topdi. Mart oyi kuzatuv natijalariga ko`ra narxlar mos ravishda 1,4 va 2,4 foizga arzonladi. Narxlarning eng katta pasayishi asosan piyoz (8,9%), sarimsoq (2,5%), kartoshka (2,4%), sabzi (1,1%) va karam (0,9%) mahsulotlarida kuzatildi.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, bozorning yangi hosil va meva-sabzavot mahsulotlari bilan to`yinganlik darajasi hududlar kesimida bir maromda ro`y bermayotganligi, bu asosan mamlakatning turli hududlari, geografik va iqlimiy xususiyatlariga, shuningdek, meva va sabzavotlarning ayrim turlari eksporti va importiga ham bevosita bog`liqligidir.

Bahorning birinchi oyida go`sht mahsulotlari narxlarining o`shishi sezilarli darajada barqarorlashdi.

## 2018 yil yanvar-mart oylarida «Go`sht, parranda va baliq» mahsulotlari guruhining iste`mol narxlari indeksi



Suyaksiz (lahm) mol go`shti joriy yilning mart oyida 2,9 %, baliq 2,6 %, qiymago`sht 2,0 %, mol go`shti (suyaksiz (lahm) go`shtdan tashqari) - 0,9 % hamda qo`y go`shti narxlari o`rtacha 0,6 %ga oshdi. Tovuq go`shti va tovuq son go`shti, shuningdek, boshqa parranda go`shti narxi esa aksincha mos ravishda 0,7 % va 1,5 % ga arzonlagan.

Sut mahsulotlari narxi o`rtacha 1,7 %ga qimmatlashib, bu esa qaymoq - 3,0 %, suzma - 2,6 %, qatiq va chuchuk qatiq - 1,6 % hamda sutning narxi - 1,5 % ga oshganligi natijasida sodir bo`ldi.


Oziq-ovqat guruhi tarkibidagi guruch, o`simlik yog`i, shakar va tuxum kabi mahsulotlar narxining arzonlashganligi natijasida istemol tovarlari guruhidagi ijobiy vaziyat, ya`ni indekslarning pasayish holati kuzatildi.

Mahsulot nomi	Narxlarning pasayishi, %
Tuxum	4,1
Shakar	2,0
Guruch	0,9
Paxta yog`i	0,6
Kungaboqar yog`i	0,4




2018 yil mart oyida respublika viloyatlari o`rtasida o`rtacha narxlar orasidagi tavofutlar saqlanib qoldi.

### 2018 yilning mart oyi davomida 1 kg go`sht mahsulotining o`rtacha minimal va maksimal narxlar



Iste`molchilar uchun mol go`shtining o`rtacha maksimal sotib olish narxi Toshkent shahrida, qo`y go`shti esa Andijon viloyatida kuzatildi. Suyaksiz mol go`shtining nisbatan arzoni Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida kuzatilgan bo`lib, mol go`shtining (suyaksiz go`shtdan tashqari) o`rtacha arzon narxi Qoraqalpog`iston Respublikasida qayd etildi.

### 2018 yilning mart oyidagi kartoshka, piyoz va sabzi mahsulotining o`rtacha minimal va maksimal narxlar




Piyoz va sabzining o`rtacha maksimal narxi Toshkent shahrida, kartoshka esa Qashqadaryo viloyatida qayd etilgan. Piyozning o`rtacha eng arzon narxi Qashqadaryo viloyatida, kartoshka Jizzax viloyatida, sabzi esa Xorazm viloyatida kuzatilgan.

### Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

Nooziq-ovqat mahsulotlari o`tgan oyga nisbatan 1,1% ga o`sdi, bu esa INIning umumiy o`shishiga 0,4 % darajada ta`sir ko`rsatdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlarini bahosining o`shishi quyida keltirilgan:

*(2018 yil mart oyidagi o`shish, %)*



**Umumiy INI o`shidagi ta`siri – 0,4 f.d.**

Kuzatuv tarkibidagi qurilish materiallari orasida shpatlyovka (13,0 %), linoleum va pol uchun laminatlangan qoplamalar (4,0 %), g`isht (1,4 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashganligining asosiy sabablaridan biri, bu aholi tomonidan ushbu mahsulotlarga bo`lgan talabning oshganligi bilan izohlanadi.

Mavsumiy kiyim mahsulotlariga bo`lgan talabning ortib borishi (bahor-kuzgi mavsumiy kurtkalar, ayollar va erkaklar ko`ylagi, kamzullar va x.k.) ushbu guruhga mansub tovarlar narxining ko`tarilishiga bevosita sabab bo`ldi.

## 2018 yil mart oyida kiyim-kechak narxlarining o`shishi



<b>Erkaklar kiyimi</b>	<b>- 2,4 %</b>
<b>Jinsi</b>	<b>- 4,8 %</b>
<b>Erkaklar ko'ylagi</b>	<b>- 4,0 %</b>
<b>Mavsumiy kurtkalar</b>	<b>- 2,4 %</b>
<b>Kamzullar</b>	<b>- 2,3 %</b>



<b>Ayollar kiyimi</b>	<b>- 1,4 %</b>
<b>Mavsumiy kurtkalar</b>	<b>- 3,8 %</b>
<b>Bluzka</b>	<b>- 2,5 %</b>
<b>Sun`iy va aralash matodan tikilgan libos, ustki kiyim, xalat</b>	<b>- 3,2 %</b>



<b>Bolalar kiyimi</b>	<b>- 1,7 %</b>
<b>Ko'ylak</b>	<b>- 4,5 %</b>
<b>Jinsi</b>	<b>- 3,9 %</b>
<b>O'g'il bolalar ko'ylagi, shimlar</b>	<b>- 3,0 %</b>

Aynan shu kabi mavsumiylik bilan bog`liq narxlarning o`zgarishi holati oyoq kiyimlar guruhida ham kuzatildi. Jumladan, erkaklar oyoq kiyimi narxlari o`rtacha 2,5 % (tufli – 4,5 %, krossovkalar – 1,7 %), ayollar oyoq kiyimi – 1,2 % (zamonaviy tufllilar – 2,6 %, past poshnali tufllilar – 1,9 %), bolalar oyoq kiyimi – 0,6 % (krossovkalar – 1,9 %)ga oshdi.

Boshqa turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari tarkibida guruhning o`rtacha indeksiga nisbatan yuqori suratlarda gilam va gilam mahsulotlari (2,2 %), maishiy to`qimachilik mahsulotlari (1,9 %) hamda mebel jihozlari (1,3 %) narxlari qimmatlashganligi kuzatildi.

### Xizmatlar uchun iste`mol narxlari indeksi

Aholi uchun xizmatlar oyda o`rtacha 0,5 %ga ko`tarildi. Bu esa INI umumiy o`shishiga 0,1 f.d.da o`z ta`sirini o`tkazdi.

**2018 yil mart oyi uchun xizmatlar narxlarining o'zgarishi  
va uning INI strukturasi ta'siri**

	<b>Narxlarning o'sishi, %</b>	<b>INlga ta'siri, f.d.</b>
<b>Xizmatlar</b>	<b>0,5</b>	<b>0,10</b>
<b>Maishiy xarakterga ega xizmatlar</b>	<b>1,8</b>	<b>0,06</b>
<b>Avtomobil transporti xizmatlari</b>	<b>1,3</b>	<b>0,04</b>

Asosan shaxsiy mulkdorlar sub'ektiga ko'rsatiladigan maishiy toifadagi xizmatlar narxi ko'rsatiladigan xizmatlar tannarxdan kelib chiqib o'zgaruvchi tariflar, shuningdek, talab va taklif natijasida oy davomida narxlar o'rtacha 1,8 foizga ko'tarildi. Uy-joy ta'miri xizmatlari (3,9 %) narxlarining birmuncha o'sishi, mazkur xizmat turiga bo'lgan talabning ortishi bevosita mavsumiylik bilan o'zaro bog'liqligidir. Sartaroshxonalar va go'zallik salonlarida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi o'rta hisobda 2,3 foizga qimmatlashdi. Maishiy xizmatlar turkumiga kiruvchi qolgan boshqa xizmatlar narxlaridagi o'sish darajasi o'rtacha guruh indeksidan yuqori bo'lmagan suratlarda qimmatlashganligi kuzatuv natijalarida o'z aksini topgan (1,8 %).

Yo'lovchi avtomobil transporti guruhi xizmatlarining oshishi zahirida asosan shahar transporti xizmatlarining respublika bo'yicha o'rtacha 3,2 foizga (Sirdaryo viloyati bo'yicha narxlarning 1,6 barobarga hamda Buxoro viloyatida 28,8 foizga qimmatlashishi kuzatilgan), shuningdek, yo'nalishli taksi xizmatlari narxi 2,2 foizga (narxlarning oshishi Buxoro viloyatida 28,6 foizga va Toshkent shahrida 2,3 foizga) qimmatlashdi.

Joriy yil mart oyida havo hamda temiryo'l transporti xizmati tariflari narxlari deyarli ahamiyatsiz darajada pasayishi, kuzatilayotgan aviatashuv yo'nalishlari va qatnovlaridagi narxlarning o'rtacha 0,3 foizga, uzoq masofaga qatnovchi temiryo'l xizmatlari tariflarining 1,1 foizga pasayishi bilan bog'liq bo'ldi. Bular esa o'z navbatida joriy yilning mart oyidagi INlga sezilarli darajada ta'sir etmadi.

**Narxlar statistikasi boshqarmasi**